

ONA TILI DARSLARIDA QO‘LLASH MUMKIN BO‘LGAN YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

Tangriyeva Umida Allaberganovna
Urganch davlat universiteti akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Har bir o‘quv mashg‘ulotini yangi interfaol metodlar asosida, ko‘rgazmalarga boy tarzda tashkil etish o‘quvchilarda mavzu yuzasidan mustahkam bilimga ega bo‘lish, mustaqil fikrini bayon eta olish, faollik kabi bir qator ko‘nikmalarni shakllantiradi. Mazkur maqolada ona tili darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: metod, hamkorlikda ishlash, kitob bilan ishlash, “Davra stoli”, “Sinkveyn”, “Insert”, “Tushunchalar tahlili”, mantiqiy tafakkur, tashabbuskorlik qobiliyati, ijodiy fikrlash.

Voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni vatanga muhabbatli, fidokor inson qilib tarbiyalashda ona tili fani katta rol o‘ynaydi. Bu fan yoshlar ma’naviyatini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Ma’naviyat esa insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbaidir.


Ona tili darslarida, ayniqsa, yangi interfaol metodlardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Misol tariqasida ona tili fanini o‘rganishda dars jarayonini qanday tashkil etish hamda unda foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol metodlardan bir nechtasini ko‘rib o‘tsak.

1. “Davra stoli” metodi

Bu metod og‘zaki shaklda ham, yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Yozma shaklda stol-stullar aylana shaklda joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert beriladi. O‘qituvchi konvertlar ustiga mavzu bo‘yicha savollarni yozadi va o‘quvchilarga tarqatma shaklidagi bo‘sh “Javoblar varaqasi” bilan birga beradi. Har bir o‘quvchi “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozadi va uni konvertga solib, yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Konvertni olgan o‘quvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ga yozib, konvert ichiga soladi. Shu tarzda barcha konvertlar soat



yoʻnalishi boʻyicha aylana boʻylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yigʻib olinib, javoblar tahlil qilinadi. Quyida “Davra stoli” metodining tuzilmasi keltirilgan:



2. “Insert” metodi

Ushbu metodda ham oʻquvchilar mustaqil oʻzlashtirgan bilimlarini namoyon etadilar. Mustaqil oʻqish vaqtida olgan maʼlumotlarini, oʻzlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish (olingan maʼlumotni tasdiqlash, aniqlash, qarshi chiqish, kuzatish, tahlil qilish)ni oʻrganadilar. Bular oʻzlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, ayniqsa, tahlil qilishda katta rol oʻynaydi.

Bunda oʻquvchilar jadvalda berilgan quyidagi belgili ustunlarni toʻldirishlari kerak boʻladi: “V” – men bilgan maʼlumotlarga mos, “-” – men bilgan maʼlumotlarga zid, “+” – men uchun yangi maʼlumot, “?” – men uchun tushunarsiz, “!” – hayratlandim.

“√”	“+”	“-”	“?”	“!”
BILAMA N	YANGILI K	BILGANLARIMG A ZID	TUSHUNMADI M	HAYRATLANDI M

3. “Sinkveyn” metodi

Ushbu metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan tarqoq axborotli jarayonlar asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich yo‘naltirilgan axborotli jarayonga aylanib boradi, ya’ni noaniq bilimlar mavzuni o‘rganish davomida aniqlashtiriladi, biror bir obyektiv voqelik to‘g‘risida yakdil fikrga kelinadi. Buning uchun o‘quvchilarda beshta imkoniyat mavjud bo‘ladi. Bunda o‘rganilayotgan mavzuga oid tushunchalar (hodisa, jarayon, voqea) qat’iy ketma-ketlikda qatorlarga yozib chiqiladi. “Sinkveyn”ni yaratish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini to‘plash, ularni ixcham ifodalash, turli mulohazalarni sintezlash va o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha to‘g‘ri xulosalarni shakllantirishga o‘rganadilar.

“Sinkveyn” ni tuzish tartibi:

1. Birinchi qatorga mavzudagi bosh g‘oya bitta ot so‘z turkumiga xos so‘z bilan qayd etiladi.
2. Ikkinchi qatorda fikr ikkita sifat so‘z turkumiga xos so‘z bilan ifodalanadi.
3. Uchunchi qatorda mavzuga oid tushunchalar uchta fe‘l so‘z turkumiga xos so‘z bilan bayon qilinadi.
4. To‘rtinchi qatorga mavzu va g‘oyani aks ettirgan yaxlit bitta gap yoziladi.
5. So‘nggi qatorga mavzu mohiyatini ochib beruvchi so‘zning sinonimi (ma‘nodoshi) yoziladi.

“Sinkveyn” mavzu bo‘yicha birorta muammoli vaziyatni yechishda o‘quvchilar tafakkurini charxlash uchun tuziladi. Beshala qatordagi topshiriqlar o‘quvchilarni



o`ylash, ko`p variantli javoblardan eng ma`qulini ajratib olish kabi ko`nikmalarga o`rgatadi.

4. “Tushunchalar tahlili” metodi

Bu metod o`quvchilarni mavzu bo`yicha tayanch tushunchalarni o`zlashtirish darajasini aniqlash, o`z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, yangi mavzu bo`yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo`llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi quyidagicha:

- 1) ishtirokchilar mashg`ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- 2) o`quvchilarga mavzuga oid so`zlar, tushunchalar yozilgan tarqatmalar beriladi;
- 3) o`quvchilar ushbu tushunchalar qanday ma`no anglatishi, qachon, qanday holatda qo`llanilishi haqida yozma ma`lumot beradilar;
- 4) belgilangan vaqt tugagach, o`qituvchi berilgan tushunchalarning to`g`ri va to`liq izohini o`qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- 5) har bir ishtirokchi berilgan to`g`ri javoblar bilan o`zining javoblarini taqqoslaydi va o`z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna :

Tushunchalar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma`no anglatadi?	Qo`shimcha ma`lumot
O`z (denotativ) ma`no	So`zlarning nutq jarayoniga bog`liq bo`lmagan atash ma`nosi o`z ma`no sanaladi. Bosh (o`z) ma`no boshqa bir leksik ma`noning yuzaga kelishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. So`zning o`z ma`nosi, asl tub ma`nosi denotativ ma`no deyiladi.	
Ko`chma (konnotativ) ma`no	So`zning nutqda boshqa so`zlarga bog`lanib hosil qiladigan yondosh ma`nosi ko`chma ma`no hisoblanadi. So`zning ko`chma ma`nosi konnotativ ma`no deyiladi.	
Metafora	(grekcha metaphora - ko`chirish) - biror predmet belgisining, harakat-ning o`xshash tomonini boshqasiga ko`chirish.	
Metonomiya	(grekcha metonymia - qayta nomlash) - narsa va hodisalar o`rtasida makon hamda zamondagi o`zaro aloqadorlik asosida birining nomi ik-kinchisiga ko`chishidir.	
Sinekdoxa	(grekcha “synecdoche”-birgalikda anglash) - shaxs yoki predmetning nomi o`rnida biror a`zo, bo`lak orqali o`sha tushunchani berish, ya`ni bo`lak orqali butunni yoki butun orqali bo`lakni ifodalashni bildiradi.	
Vazifadoshlik	Narsa va hodisalar o`rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma`no ko`chishi deyiladi.	



Izoh: ikkinchi ustunga o`quvchilar tomonidan ma'lumot yoziladi.

Ushbu metod orqali o`quvchilar aniq bir tushuncha yuzasidan fikr yuritish, ta'riflash, ko`p fikrlardan zarurini tanlash, tanlagan fikrini umumlashtirish va ular asosida aniq bir ma'lumotni ifodalashga o`rganadilar.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, mashg`ulotlarda interfaol metodlarni qo`llash natijasida o`quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, o`z fikrini bayon qilish, sog`lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko`nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol metodlar o`z mohiyatiga ko`ra ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda eng zaruriy vositalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Yo`ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta'limning interfaol metodlari. Metodik qo`llanma. Urganch, 2011.
2. Abduruhmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – T.: “O`qituvchi”, 1980.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.
4. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O`zbek tilidan universal qo`llanma. – T.: “FAN”, 2008.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
6. WWW.ZiyoNet.uz.
7. WWW. Ta'lim.uz.

